

Innovative Academy
Research Support Center

**ZAMONAVIY DUNYODA
TABIIY FANLAR:
NAZARIY VA AMALIY IZLANISHLAR
RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY
KONFERENSIYASI**

zenodo



INTERNET
ARCHIVE

OpenAIRE



**«INNOVATIVE ACADEMY» ILMIY TADQIQOTLARNI
QO'LLAB-QUVVATLASH MARKAZI**

**«ZAMONAVIY DUNYODA TABIIY FANLAR: NAZARIY VA AMALIY
IZLANISHLAR» NOMLI № 4-SONLI ILMIY, MASOFAVIY, ONLAYN
KONFERENSIYASI**

**ILMIY-ONLAYN KONFERENSIYA TO'PLAMI
СБОРНИК НАУЧНЫХ-ОНЛАЙН КОНФЕРЕНЦИЙ
SCIENTIFIC-ONLINE CONFERENCE COLLECTION**

OpenAIRE



OPEN ACCESS

zenodo

INTERNET
ARCHIVE

**«ZAMONAVIY DUNYODA TABIIY FANLAR: NAZARIY VA AMALIY
IZLANISHLAR» NOMLI № 4-SONLI ILMIY, MASOFAVIY, ONLAYN
KONFERENSIYASI**

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTINING 2020 YIL 2-MART KUNGI «ILM, MA'RIFAT VA RAQAMLI IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISH YILI»DA AMALGA OSHIRISHGA OID DAVLAT DASTURI TO'G'RISIDA»GI FARMONIDA KO'ZDA TUTILGAN VAZIFALARNI IJROSINI TA'MINLASH MAQSADIDA «INNOVATIVE ACADEMY RSC» MCHJ TOMONIDAN TA'SIS ETILGAN «EURASIAN JOURNAL OF ACADEMIC RESEARCH (EJAR)» ILMIY-USLUBIY JURNALINING (O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI ADMINISTRATSIYASI HUZURIDAGI AXBOROT VA OMMAVIY KOMMUNIKASIYALARNI RIVOJLANTIRISH AGENTLIGINING 1415-SONLI GUVOHNOMA HAMDA ISSN 2181-2020, WWW.IN-ACADEMY.UZ VEB SAYTI) «ZAMONAVIY DUNYODA TABIIY FANLAR: NAZARIY VA AMALIY IZLANISHLAR» NOMLI ILMIY, MASOFAVIY, ONLAYN KONFERENSIYASI E'LON QILINADI.

KONFERENSIYA TO'PLAMI ZENODO, OPEN AIRE, OPEN ACCESS VA INTERNET ARCHIVE BAZALARIDA INDEKSLANADI. KONFERENSIYA TO'PLAMIGA DOI RAQAMI BERILADI. KONFERENSIYA TO'PLAMIGA QUYIDAGI YO'NALISHLAR BO'YICHA MAQOLALAR QABUL QILADI:

- BIOLOGIYA FANLARI
- TIBBIYOT (TURLARI BO'YICHA)
- FARMATSEVTIKA (TURLARI BO'YICHA)
- KIMYO FANLARI
- QISHLOQ XO'JALIGI FANLARI
- VETERINARIYA

ESLATMA! KONFERENSIYA MATERIALLARI TO'PLAMIGA KIRITILGAN MAQOLALARDAGI RAQAMLAR, MA'LUMOTLAR HAQQONIYLIGIGA VA KELTIRILGAN IQTIBOSLAR TO'G'RILIGIGA MUALLIFLAR SHAXSAN JAVOBGARDIRLAR.

CARABIDAE OILASI VAKILLARINING TAKSONOMIK TARKIBI

L.X. Alimova

Buxoro davlat universiteti, Zoologiya va umumiy biologiya kafedrasida o'qituvchi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7854579>

liz.a@mail.ru

Annotatsiya: Tadqiqotlar davomi vizildoq qo'ng'izlarning 2400 dan ortiq namunalari to'plandi va tahlil qilindi. Buxoro va Qorako'l oazislari biotsenozlaridan vizildoq qo'ng'izlarning 9 ta kenja oila, 19 ta triba, 28 ta avlodga mansub 43 ta turi aniqlandi.

Kalit so'zlar: Carabidae oilasi, Zarafshon vohasi, biotsenoz, karabidofauna.

Vizildoq qo'ng'izlari oilasi (Carabidae) – qattiqqanotli hasharotlar (Coleoptera) turkumining eng katta va turlarga boy oilalaridan biridir. Hisob-kitoblarga ko'ra, dunyo faunasidagi vizildoq qo'ng'izlar turlari soni 40 000 dan ortiqroq [Thiele, H.U., 1977]. Ammo kashf etilgan turlar soni yil sayin oshib bormoqda va har yili ushbu qo'ng'izlarning 100 ga yaqin yangi turlari kashf qilinadi [Kotze et al., 2011].

Zarafshon vohasining quyi oqimida joylashgan Buxoro va Qorako'l oazislarining vizildoq qo'ng'izlari haqidagi ayrim ma'lumotlar R.A.Alimjonov va S.G.Bronshteyn [1956], A.G.Davletshina va boshqalar [1979], A.Dadamirzaev [1979] ishlarida keltirilgan bo'lsada, hudud karabidofaunasini o'rganish bo'yicha maxsus tadqiqotlar o'tkazilmagan.



Tadqiqotlar davomi vizildoq qo'ng'izlarning 2400 dan ortiq namunalari to'plandi va tahlil qilindi. Buxoro va Qorako'l oazislari biotsenozlaridan vizildoq qo'ng'izlarning 9 ta kenja oila, 19 ta triba, 28 ta avlodga mansub 43 ta turi aniqlandi.

Aniqlangan turlardan *Syntomus obscuroguttatus* va *Scarites subcylindricus* turlari O'zbekiston Respublikasi uchun ilk marotaba qayd qilinmoqda.

Aniqlangan vizildoq qo'ng'izlar 9 ta kenja oilaga mansub bo'lib, turlarining xilma-xilligi jihatidan Harpalinae Bonelli, 1810 kenja oilasi yaqqol ustunlikka ega (1-rasm). Ushbu kenja oila vakillari 21 turdan iborat bo'lib, barcha turlarning 49% ini tashkil etadi. Barcha vizildoq qo'ng'izlar turlarining 19%i Trechinae Bonelli, 1810 kenja oilasi vakillaridir (8 tur).

Scaritinae Bonelli, 1810 va Cicindelinae Latreille, 1802 kenja oilalari mos ravishda barcha turlarning 12 % va 8% ini tashkil etadi. Qolgan kenja oilalarning karabidofauna tur tarkibidagi hissasi 5% va undan kam.

Individlar seroblighi jihatidan kenja oilalar taqqoslanganda Harpalinae kenja oilasining ustunligi yanada yaqqol oshadi (2-rasm). Barcha yig'ilgan qo'ng'izlarning 82% ini Harpalinae kenja oilasi individlari tashkil etdi. Trechinae kenja oilasi uchun teskari vaziyat kuzatiladi, ya'ni turlar xilma-xilligi jihatidan ushbu taksonning karabidofaunadagi hissasi 19% ni tashkil etgan bo'lsa, barcha yig'ilgan individlarning faqatgina 4 % i shu kenja oila individlaridan iborat bo'ldi. Scaritinae taksoni individlar seroblighi jihatidan o'z hissasini saqlab qolgan bo'lsa, Cicindelinae va Omophroninae oilalarining hissasi keskin kamayib, 1% dan past bo'ldi. Umuman, 9 ta kenja oiladan 5 tasining individlar seroblighidagi hissasi 1% dan past ko'rsatkichga ega bo'ldi.



1-rasm. Karabidofaunada turli kenja oilalarning turlar xilma-xilligi bo'yicha hissasi.

2-rasm. Karabidofaunada turli kenja oilalarning individlar seroblighi bo'yicha hissasi (hissasi 1% dan kam bo'lgan hollarda raqamlar keltirilmagan).

Karabidofanunaning turlar tarkibini tribalar kesimida tahlil qilinganda, aniqlangan turlarning 23,26% (10 tur) Harpalini tribasi vakillari tashkil etishdi. Keyingi o'rinlarda Scaritini, Bembiidini va Lebiini joylashadi (har biri 9,3% (4 tur) dan).

References:

1. Сезонная динамика численности жуков-герпетобионтов в агроценозах Зеравшанской долины. ХФЗ Хамзаев Р.А., Алимова Л.Х., Умурзакова М.С. Научное обозрение. Биологические Науки. – РФ, 41-45.
2. Изучение морфометрических особенностей *Machozetus Lehmanni* Menetries, 1848 - эндемика средней Азии. ХФ Зокирова Д.Ф., Алимова Л.Х. Научное обозрение.

Биологические Науки. РФ. 1 (1), 16-21

3. Kovrak vizildog'i (*Machozetus Lehmanni Menetries*, 1848) ning morfologik xususiyatlari. ALX Xalimov F.Z. Qardu xabarlari. 3 (49), 54-59.

4. Таксономический состав фауны жуков-щелкунов (*Coleoptera, Elateridae*) Нижнего Зарафшана. ЛХА Р.А. Хамзаев, Узбекский Биологический Журнал, 32-36.



	БУЗЫЎ Азбергенова Мунира Чаржаувна	
12.	“HASHAROT” LMG ASOSIDA SHAKLLANGAN PAREMALARDA SINONIMIYA VA ANTONIMIYA HODISASI Zaripova Nilufar Juma qizi	41
13.	ОСОБЕННОСТИ ТЕЧЕНИЯ БЕРЕМЕННОСТИ У ЖЕНЩИН С РАЗЛИЧНОЙ ФОРМОЙ ВАРИКОЗНОЙ БОЛЕЗНИ Худоярова Дилдора Рахимовна, Юсупов Орзимурод Шомуродович	45
14.	POPULYATSIYANING TARKIBIY QISMLARI VA TUZILMALARI Xusanova Dilorom Nurmatjon qizi, Komilova Arofatoy Kozimjon qizi	49
15.	ASOSIY EKOLOGIK OMILAR TASNIFI VA ULARNING ORGANIZMLARGA TA’SIRI Olimova Muxlisa Odiljon qizi, Abduvohidova Zilola Doniyorbek qizi, Oxnorova Iroda Baxrom qizi	55
16.	CARABIDAE OILASI VAKILLARINING TAKSONOMIK TARKIBI L.X. Alimova	58
17.	TABIIY FAN DARSLARIDA STEAM TA’LIMINING O’RNI. Salomova Zulxumor Abduqodirovna, Tojiyeva Mavluda Abdumajitovna	61
18.	ЧЎЛ МИНТАҚАСИ ҚУМЛИ ТУПРОҚЛАРИ ШАРОИТИДА ҒЎЗАНИ ЕРЁНҒОҚ БИЛАН ҲАМКОР ЭКИШ ТЕХНОЛОГИЯСИ Усмонов Нодиржон Ботиралиевич	67
19.	FIZIKA FANI VA UNI BOSHQA FANLAR BILAN BOG’LIQLIGI Nazarova O. N.	70
20.	ҚИЗЛАРДА ГЕПАТИТНИНГ ҲАЙЗ ЦИКЛИГА ТАЪСИРИ. Орипова Мафтуна Тохир қизи, Зокирходжаева Дилдора Асраловна	74